



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

18 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 18, НОМЕР 3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 18, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2025

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-3>

Бош муҳаррир:  
Главный редактор:  
Chief Editor:

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:  
Заместитель главного редактора:  
Deputy Chief Editor:

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Adilxodjayeva Surayo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'afvor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)  
**Umarxonova Dildora Sharipxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nematov Jo'rabek Nematilloevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)  
**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)  
**Mexmonov Kambariddin Miradxamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)  
**Borut Strazisar**  
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliyev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzayev Aziz**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Taxirov Farxod**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)  
**Qo'shayev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govverjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

<b>1. Xabibullayeva Dilfuza Kuanishbay qizi</b> DAVLAT XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY MAQOMI.....	5
<b>2. Халилова Нигорахон Акмалжон кизи</b> РОЛЬ СВОБОДЫ СЛОВА В МЕХАНИЗМЕ КОНТРОЛЯ НАД ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ОРГАНАМИ.....	12
<b>3. Baratov Mirodiljon Khomudzhonovich, Khakimov Ravshan Tulkunovich, Akramxodjaev Bori Toxtaxodjaevich</b> ACCESSION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN TO THE WORLD TRADE ORGANIZATION AND CURRENT ISSUES OF CYBER PROTECTION OF THE AUTOMOTIVE INDUSTRY OF UZBEKISTAN.....	19
<b>4. Фахриддинов Аловуддин Фахриддинович</b> КИССАВУРЛИК ЖИНОЯТИНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ВА ФОШ ЭТИШГА ОИД АЙРИМ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАР ТАҲЛИЛИ.....	26
<b>5. Рузиназаров Шухрат Нуралиевич</b> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ: МИРОВЫЕ ОРИЕНТИРЫ И ОПЫТ СТРАН ЦАРЭС И ОТГ.....	34
<b>6. Давлятов Валишер Хакимжанович</b> АДВОКАТЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНИ: АҲАМИЯТИ, ЗАРУРАТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	58
<b>7. Рустамов Нодирбек Илхомович</b> ТЕРГОВГА ҚАДАР ТЕКШИРУВ БОСҚИЧИДА ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ ЎТКАЗИШ УСТИДАН ПРОКУРОР НАЗОРАТИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	65
<b>8. Ametova Nurjamal Qudaybergenovna</b> HARBIY YOКИ MAXSUS UNVONDAN MAHRUM ETISH TARZIDAGI QO‘SHIMCHA JAZO TURINI TA‘YINLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	74
<b>9. Садуллаев Жахонгир Джамshedович</b> АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЧИЛИГИДА ҲУЖЖАТЛАРНИ ҚАЛБАКИЛАШТИРГАНЛИК, СОТГАНЛИК ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНГАНЛИК УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ.....	80
<b>10. Матжанов Илхам Адилбаевич</b> ТЕРГОВГА ҚАДАР ТЕКШИРУВДА ЖИНОЯТ ҲАҚИДА ОАВ ДА ТАРҚАЛГАН ХАБАР ВА МАЪЛУМОТЛАРНИ ТЕКШИРИШНИНГ ПРОЦЕССУАЛ АҲАМИЯТИ.....	88
<b>11. Ғайбуллаев Фаррух Юлдашевич</b> ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КОРРУЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	95
<b>12. O‘rinova Dilshoda Adxamovna</b> AYOLLAR JINOYATCHILIGINING SABABLARI, UNI VUJUDGA KELITIRUVCHI SHART- SHAROITLAR.....	108




**12.00.15-КРИМИНОЛОГИЯ (ЮРИДИЧЕСКИЕ НАУКИ)**

**O‘rinova Dilshoda Adxamovna,**  
 O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya  
 tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi  
 E-mail: Mstoremstore138@gmail.com

**AYOLLAR JINOYATCHILIGINING SABABLARI, UNI VUJUDGA KELTIRUVCHI SHART-SHAROITLAR**

**For citation:** Urinova Dilshoda Adkhamovna. CAUSES OF FEMALE CRIMINALITY, THE CONDITIONS THAT GIVE RISE TO IT. Journal of Law Research. 2025, 10 vol., Issue 3, pp. 108-115

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15158706>

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada ayollar jinoyatchiligining sabablari, uni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar bilan bog‘liq masalalar bayon etilgan. Bundan tashqari, maqolada muallif ayollar jinoyatchiligining sharoiti bilan sabablari o‘rtasidagi aloqadorlik, ularning o‘ziga xos jihatlarini ochib beradi. Jumladan, sharoit o‘z-o‘zidan jinoyat va jinoyatchilikni keltirib chiqara olmasligi, balki, sharoitsiz jinoyat va jinoyatchilikning sabablari o‘z mazmuniga ko‘ra ijtimoiy-ruhiy xususiyatga sharoit esa iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy va hokazo mazmunga ega bo‘lishi bilan bog‘liq holda ruy berishi borasida fikrlar tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlari:** Ayollar, jinoyatchilik, jinoyat, zo‘rlilik ishlatib, sabablari, uni vujudga keltiruvchi, shart-sharoitlar, kriminologik, tavsif, jinoyat sodir etgan shaxs.

**Уринова Дилшода Адхамовна,**  
 Самостоятельный соискатель Исследовательского  
 института криминологии Республики Узбекистан  
 E-mail: Mstoremstore138@gmail.com

**ПРИЧИНЫ ЖЕНСКОЙ ПРЕСТУПНОСТИ, УСЛОВИЯ ЕЕ ВОЗНИКНОВЕНИЯ**

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются причины женской преступности и условия, способствующие ее возникновению. Кроме того, в статье автор раскрывает взаимосвязь между условиями и причинами женской преступности, их специфические аспекты. В частности, проанализированы мнения о том, что условия сами по себе не могут привести к преступности и преступности, а причины преступности и преступности без условий по своему содержанию имеют социально-психологический характер, а условия имеют экономическое, политическое, правовое, организационное и т.д. содержание.

**Ключевые слова:** Женщины, преступность, преступление, насилие, причины, создающие его, условия, криминологический, описание, лицо, совершившее преступление.

**Urinova Dilshoda Adkhamovna,**  
Independent researcher at the Research Institute  
of Criminology of the Republic of Uzbekistan  
E-mail: Mstoremstore138@gmail.com

## CAUSES OF FEMALE CRIMINALITY, THE CONDITIONS THAT GIVE RISE TO IT

### ANNOTATION

This article describes the causes of women's crime and the conditions contributing to it. In addition, the author reveals the connection between the conditions and causes of women's crime, their specific aspects. In particular, opinions are analyzed that conditions cannot cause crime and criminality by themselves, but that the causes of crime and criminality without conditions are socio-psychological in nature, and conditions have economic, political, legal, organizational, etc. content.

**Keywords:** Women, crime, crime, violence, causes, conditions, criminological, description, person who committed the crime.

Bizga ma'lumki, ayollar jinoyatchiligining kriminologik tavsifini urganishda, ushbu jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, ushbu jinoyatni sodir etgan jinoyatchi shaxsi, ayollar jinoyatchiligining oldini olish kabi masalalarni hal etamiz.

Chunki, kriminologiya ayollar jinoyatchiligini sodir etishga imkon beruvchi sabab va sharoitlarni ajratib boradi. Har qanday ijtimoiy hodisaning, o'zgarishi zamirida eng avvalo uni keltirib chiqaruvchi sabab yotadi. Demak, jinoyatda keltirib chiqaruvchi sabab kriminologiyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Har qanday oqibat muayyan sabablar tufayli kelib chiqar ekan, ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjud bo'ladi. Sabab va oqibat cheksiz ravishdagi zanjrdan iboratdir. Sabablarning bunday taxlitda qo'yilishi eng avvalo o'rganilayotgan hodisa sababning unga yaqinroq bo'lgan qismini aniqlashdan iboratdir.

Har bir sabab va oqibat o'zaro bog'liqlikda bo'lib, hodisalar, holatlar yig'indisi muayyan muhitni tashkil qiladi. Bu muhitdagi jarayonlar biron-bir hodisaning rivojlanishi va kelib chiqishini ta'minlaydi. Sabab va oqibatning aloqadorligi faqat muayyan sharoit natijasida yaratilgan yoki mavjud bo'lgandagina yuz beradi. Demak, muayyan sharoit avvalo sababni yaratadi, sabab esa muayyan oqibatni keltirib chiqaradi[1].

Ayollar jinoyatchiligining sharoiti o'z-o'zidan jinoyat va jinoyatchilikni keltirib chiqarmaydigan, ammo jinoyatning sodir etilishini osonlashtiruvchi, unga imkon beruvchi g'ayriijtimoiy hodisadir.

Ayollar jinoyatchiligining sharoiti bilan sabablari o'rtasida bevosita aloqadorlik bo'lib, bular kriminogen determinantlar hisoblanadi. Sharoit o'z-o'zidan jinoyat va jinoyatchilikni keltirib chiqara olmaydi.

Ammo sharoitsiz jinoyat va jinoyatchilikning sabablari o'z mazmuniga ko'ra ijtimoiy-ruhiy xususiyatga ega. Sharoit esa iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy va hokazo mazmunga ega bo'ladi. Sharoit sababni, sabab esa o'zining oqibati sifatida jinoyatchilikni keltirib chiqaradi.

Ayollar jinoyatchiligining sabablarini tasniflashning ham nazariy, ham amaliy ahamiyati shundaki, jinoyatchilikning sharoit va sabablarini nimalardan iborat ekanligini, jamiyatning qaysi ijtimoiy munosabatlarida qanday ziddiyatlar, jarayonlar yuz berayotganligini aniqlash, shunga muvofiq ravishda jinoyatchilik va viktimlikning umumiy hamda maxsus oldini olish choralari ishlab chiqishdan iboratdir.

Aynan ayollar jinoyatchiligining sabablarini o'rganish va umumlashtirish orqali jamiyatda jinoyatchilikni tug'dirib turuvchi, kishilar xulqiga ta'sir qiluvchi jamiyat darajasidagi ziddiyatlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar aniqlanadi. Ana shu ziddiyat, xato va kamchiliklarni bartaraf qilish choralari ishlab chiqiladi hamda amalda tatbiq etiladi.

Ushbu jinoyatlarni keltirib chiqadigan sabablar va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda insonlarning kamsitilishi, ularning huquqlarini

tan olmaslik va poymol qilish, odam savdosi va odamlarni ekspluatatsiya qilish uchun jalb qilish holatlari ko‘plab sodir etilmoqda.

Bu esa jinoyatchilikning ushbu ko‘rinishiga qarshi kurashni yanada kuchaytirishni, sodir etish sabablarini aniqlashni, ularning oldini olishni, o‘zaro hamkorlikni xalqaro miqyosda aniq yo‘nalishlar orqali kuchaytirishni talab qiladi.

Hozirgi kunda ayollar jinoyatchiligi haqida ma’lumotlar deyarli yo‘q hisob. Dastlab, jinoyatchi ayollar XIX asrning ikkinchi yarmida Lamber Adolf Jak Ketle va Chezare Lombrozo tomonidan o‘rganib chiqilgan. Ammo, shundan keyin bunday tadqiqotlar olib borilgan emas, biroq mustaqillik yillarida ayollar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi, ularning oldini olish masalalari jumladan, O‘zbekistonda ayollar jinoyatchiligining jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari yoritilgan eng diqqatga sazovor va tizimli ilmiy tadqiqotlar Q.R.Abdurasulova[2]ga tegishlidir. O‘zbekistonda gender siyosati va xotin-qizlarning ijtimoiy maqomi sohasidagi izlanishlarni M.H.Xolmatova[3]., G.A.Matkarimova[4]., S.X.Safayeva, S.A.Xodjayeva, Sh.H.Hamrayevalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan[5].

Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning jinoyat huquqiy va kriminologik jihatlari Rossiya Federatsiyasi huquqshunos olimlarining ishlarida ancha batafsil yoritib berilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, L.Yu.Cherneshkova, Ye.Yu.Sergeeva, T.N.Volkova, V.A.Andriyenko, B.N.Xachaklarning ilmiy ishlarida ayollarga nisbatan jinoiy javobgarlikni differentsiyalashtirish, jazo tayinlashning o‘ziga xos jihatlari, ayollarga nisbatan jazo tayinlash masalasida qo‘llaniluvchi imtiyozi holatlar, ayollarning jinoyat subyekti sifatida va jabrlanuvchi sifatida huquqiy mustahkamlangan o‘rni nazariy ma’lumotlar va sud statistikasining tahlili asosida ochib berilgan[6].

Ayollar jinoyatchiligining kriminologik muammolari rus olimlarining quyidagi ishlarida keltirilgan. Jumladan, M.M.Gitinova, K.A.Demina, A.E.Bagdasarovalar tomonidan kriminologik jihatlari mufassal yoritilgan[7]. Shuningdek, uzoq xorijiy mamlakatlar olimlari T.Andrea, Heinz, Schnabel-Schüle, Ansatz Schmölzer, Wunder[8] asarlarida ayollar jinoyatchiligining jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolari chuqur yoritilgan.

Ammo bu bilan ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar hamon uchrab turibdi. Shu o‘rinda tabiiy bir savol tug‘iladi. Ayollarning jinoyatga qo‘l urish sabablari nimada?

Ma’lumki, ayollar erkaklarga nisbatan jismonan va ruhan zaifdirilar. Shuningdek, ayollar erkaklarga qaraganda hayotda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarga tez va oson ko‘nikadi, qiyin vaziyatlardan oson chiqib keta oladi. Shu bilan birga, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyat erkaklar tomonidan sodir etilgan jinoyatlardan farqlanadi.

Akademik Kudryavsevning fikriga ko‘ra, ayollar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlar erkaklar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlardan quyidagilar bilan farqlanadi: jinoiy xarakteri, sodir qilish usullari, vositalari, jinoyat oqibati, jabrlanuvchining tanlab olinishi[9]. Bularga qo‘shimcha qilib shuni aytishim kerakki, ayollarning jinoyati erkaklarnikiga qaraganda, kuchli hayajonlanish va ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladi.

Bundan tashqari, ayollar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlar jinoyat motivi bilan ham farqlanadi. Ular birinchi. navbatda rashk, o‘ch olish, xasadgo‘ylik, jabrlanuvchidan qutulishga harakat qilishlarida nomoyon bo‘ladi. Ayollar tomonidan sodir qilinadigan ko‘pgina jinoyatlar jabrlanuvchining g‘ayriqonuniy xatti-harakati oqibatida kelib chiqadi.

Erkaklar bilan ayollar o‘rtasidagi jinoyatchilikdagi muhim farq ko‘proq zo‘rlilik ishlatib sodir qilinadigan jinoyatlarda (odam o‘ldirish, talonchilik, bosqinchilik qilish, qurol ishlatib ashaddiy bezorilik qilish) yaqqol ko‘rinadi. Bunday holatda ham ayollar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlarni biologiyalashtirishga, ya’ni ayollar jismonan erkaklarga nisbatan zaif bo‘lganligi uchun kam jinoyat sodir etadilar, -deb asoslashga urinadilar. Ammo bunday yondashuv bir tomonlamadir. Ayollar erkaklarga nisbatan jismoniy kuch jihatdan orqada bo‘lsa-da, ularning zo‘rlilik ishlatib sodir qilinadigan jinoyatlardagi uncha ko‘p bo‘lmagan hissasini an’anaviy urf-odatlar asosidagi tarbiya bilan bog‘lab tushuntirish kerak. Bundan tashqari, ayollarda hissiy holat, ta’sirchanlik ma’lum bir fiziologik holatda kuchli bo‘ladi. Bunday holat qonunchilikda ham e’tiborga olinadi[10].

Jumladan, Farg‘ona viloyati miqyosida xotin-qizlar jinoyatining kelib chiqish sabablari o‘rganilganida, shulardan 596 tasi yoki 63,4 foizi yengil daromad topish maqsadida, 10 tasi yoki 1 foizi

rasmiy ishsizlik, 17 tasi yoki 1,8 foizi oilaviy kelishmovchilik, 376 tasi yoki 36,1 foizi o‘zaro nizo, 46 tasi yoki 4,8 foizi ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan.

Ayollar tomonidan juda ko‘p jinoyatlar, jumladan o‘g‘rilik, bezorilik, odam o‘ldirish, o‘z chaqalog‘ini o‘ldirish, firibgarlik, qo‘shmachilik, foxishabozlik jinoyati kabi jinoyatlari sodir etilgan.

O‘g‘rilik va bezorilik jinoyati ayollar tomonidan, ko‘pincha shahar joylarida sodir etiladi. Chunki shaharlarda qishloq joylariga nisbatan aholi ko‘pligi sababli binolar zich joylashgan. Bundan tashqari, shaharlarda magazinlar, savdo markazlari, umumiy ovqatlanish joylari ko‘p. O‘g‘rilik jinoyatini sodir qiluvchi ayollarni asosan daydilar, lo‘lilar va turar joyga ega bo‘lmagan shaxslar tashkil qiladi.

Zo‘rluk ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarda ayollar erkaklarga nisbatan uncha katta bo‘lmagan foizni tashkil qiladi. Lekin shunisi bilan qiziqki, ayollar tomonidan zo‘rluk ishlatib sodir etilgan jinoyatlar shavqatsizlarcha sodir etilganligi hamda ularning bu xatta-harakati asosan turmush o‘rtog‘i va kundoshiga, shuningdek, ba‘zi holatlarda qaynonasiga qaratilganligi kuzatiladi. Meni fikrimcha, buning sababi ayollarning hayotdagi ijtimoiy rolining o‘zgarishi, oiladagi muhitning buzilish va ayollarning ruhan hayotga ishonchsizligidadir.

Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning yana bir turi, ayollarning o‘z chaqalog‘ini o‘ldirishidir. Bu jinoyat asosan yosh ayollar tomonidan, shuningdek, ko‘pincha qishloq joylarida sodir etiladi. Bunday joylarda sodir etilishiga sabab, hali yoshlarning ba‘zi bir masalalarni tushunib yetmasligi oqibatida aldanib qolishi hamda bolani oldirish uchun sharoit yo‘qligida va qizlardagi uyat, oriyatning kuchliligidadir. Shu jumladan, ota-onasi va o‘zining obro‘yini, nomusini qo‘ni-qo‘shni oldida saqlab qolishda ifodalanadi.

Qo‘shmachilik va foxishabozlik kabi jinoyatlar ham ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning ko‘pchiligini tashkil qiladi. Buning sabablari bir talay bo‘lib, ba‘zi bir olimlarimiz buni iqtisodiyotga bog‘lasa, ba‘zilari esa ayollarning shu narsaga bo‘lgan qiziqishida deb ko‘rsatadilar. Bundan tashqari, narkotik moddalarning oldi-sotdisi bilan shug‘ullanish hamda ularni saqlash bilan bog‘liq jinoyatlar ham hozirgi kunda ayollar tomonidan sodir etiladigan bo‘lgan.

Bunday jinoyatlarni ko‘rib chiqa turib, ayollar jinoyatining asosiy sabablari nimada, degan tabiiy savol tug‘iladi. Mening fikrimcha, ayollar quyidagi sabablarga ko‘ra, jinoyatga qo‘l uradilar:

Birinchidan, jamiyatdagi o‘sib borayotgan qiyinchiliklar, ertangi kunga ishonchsizlik, hayotning yangi sinovlariga chiday olmaslik, ya‘ni ularning irodasizligi;

Ikkinchidan, ayollar jinoyatining, ayniqsa, o‘g‘rilik jinoyati sodir etilishining sababi ayolning ishlab chiqarishda faol ishtirok etishi, ya‘ni bola tarbiyasi bilan birga oila boshqaruvi ayolning yelkasida ekanligi, oilada yagona boshqaruvchi bo‘lib kolishi;

Uchinchidan, ijtimoiy institut hisoblangan oilaning susayishi, er-xotin va bolalar o‘rtasidagi ruhiy munosabatning buzilishi;

To‘rtinchidan, muqaddas Sharq ayolining jamiyatni zaharlaydigan narkomaniya, spirtli ichimliklarga mukkasidan ketib berilishi, foxishabozlikning avj olishidir.

Ijtimoiy huquqsizlik, umumiy ruhiy beqarorlik, ma‘naviy-psixologik qadriyatlarning yo‘qolishi, buning natijasi o‘laroq bunday sharoitlarda oilaviy turmushga, ijtimoiy muhim “Oila o‘chog‘ining yoquvchisi” rolini bajarishga layoqatsizlik – jamiyatida, ayniqsa, yoshlar orasida ayollar jinoyatchiligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan omillardir. Yosh ayollar va qizlar, jumladan, voyaga yetmaganlar ham qandaydir yo‘llar bilan boyib ketishga, ijtimoiy zinaning nisbatan baland pog‘onalariga ko‘tarilishga harakat qilmoqdalar. Intilish, albatta, yaxshi, ammo bu maqsadga erishish yo‘lida har qanday, hatto, g‘ayriqonuniy vositalar ishga solinmoqda[11].

Ayollar jinoyatchiligi sabablari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollarning jinoyatga qo‘l urishi sabablari turli-tumandir. G.Matkarimova ayollarning jinoyat sodir etishlariga sabablar sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi:

– iqtisodiy jihatdan qiynalgan ayol bu ahvoldan chiqib ketish yo‘llarini qidiradi, aksariyat bu yo‘llar jinoyatga yetaklaydi;

– yoshligida zo‘rlangan yoki katta yoshda bo‘lganida xohishiga qarshi zo‘rlangan ayollar ham o‘ch olish maqsadida jinoyat yo‘liga kirish ehtimoli bor;

– oila aʼzolari tomonidan kamsitilgan ayol ham kichik isyon koʻtarib, jinoyat yoʻliga kirishi mumkin;

– farzandiga nisbatan zoʻrluk yoki kamsitish alomatlarini qoʻllayotganini koʻrganida;

– yashash uchun kurashning boshqa turlari qolmadi, deb hisoblanganda, yaʼni ikki eshik oʻrtasida yo qashshoq umr yoki xavfli, tahlkali boʻlsa-da chiroyli hayot[12].

Ayollarning jinoiy xulq-atvoriga taʼsir koʻrsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy sabablar, maishiy omillar yigʻindisini tahlil qilib, shuni aytish lozimki, bunday omillar jumlasiga, birinchi navbatda quyidagilar kiradi: ijtimoiy-demografik omillar (urbanizatsiya, migratsiya, jins va yoshga oid maʼlumotlar va maʼmuriy-hududiy tuzilishning oʻzgarishi); iqtisodiy omillar (umumiy va tarmoqlardagi bandlik, mehnatga haq toʻlash, narx-navoni belgilash); siyosiy va ijtimoiy-ruhiy omillar (milliy mafkura, axborot texnologiyalari, demokratik institutlarning faoliyati, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga davlatning munosabati); tashkiliy-huquqiy omillar (amaldagi qonun hujjatlari, ularni qoʻllashni taʼminlovchi institutlarning samaradorligi) kiradi.

Shuningdek, yuqoridagi omillar roʻyxati toʻliq emasligini ham qayd etib oʻtish lozim. Bu holat shu bilan izohlanadiki, pirovard natijada jinoyatning sodir etilishiga olib keladigan katta-kichik omillar miqdorini toʻla va toʻgʻri aniqlash mumkin emas. Kriminolog olimlar bunga intilmoqdalar va hozirda jinoyatchilikka 320 dan ortiq omillar taʼsir koʻrsatishi aniqlangan[13]. Ye.I.Kairjanov esa jinoyatchilik sabablarini oʻrganish tarixidan kelib chiqib, jinoyatchilik sabablarining manbalari soniga qarab ularni bir omilli va koʻp omilliga ajratish mumkinligini qayd etadi[14].

Q.R.Abdurasulova ayollar jinoyatchiligining sabablari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy sabablar, ijtimoiy-maishiy sabablar, jinoyatchi ayollarning professionallashuviga olib keluvchi sabablar va ozodlikdan mahrum etish muassasalaridagi ijtimoiy muhitning shaxsga salbiy taʼsiri toʻgʻrisida fikr yuritib, mustaqillikkacha va mustaqillikka erishgandan soʻng mamlakatdagi iqtisodiy-siyosiy ahvolning jinoyatchilikka taʼsirini muhokama qilgan.

Jumladan, “ishchi kuchiga boʻlgan talab kamayib borayotgan sharoitlarda yoshi 45 dan oshgan oliy va oʻrta maʼlumotli ayollar oʻz ixtisosligi boʻyicha ish topish istiqbollariga deyarli ega emaslar. Qishloqlar va shaharchalarda ish bilan taʼminlash muammosi, ayniqsa, keskin boʻlib turibdi. Bu yerda xotin-qizlarning yoshi, maʼlumoti va ixtisosligidan qatʼi nazar, ish topishlari juda qiyin. Umuman olganda, 1996-yili respublika boʻyicha aholini ish bilan taʼminlash xizmatlariga murojaat etgan xotin-qizlarning atigi 13 % ish bilan taʼminlangan.

Keltirilgan statistika maʼlumotlariga kriminologik baho berishda mazkur muammo asosan “yashirin”, norasmiy ishsizlik bilan bogʻliqligini, bu esa, muqarrar ravishda, iqtisodiyot va biznesning jinoiy sohalar tomonidan taʼminlanadigan “yashirin bandlik”ni keltirib chiqarishini ham nazarda tutish kerak” [15].

Bugungi kunda maʼlum bir ish oʻrnida band boʻlmasligi, oz fursatlar ichida moddiy muammolarni bartaraf qilish ilinji, zarur huquqiy bilimlarga ega boʻlmaslik va boshqa sabablar tufayli xotin-qizlarning transmilliy jinoyatchilik boʻlmish odam savdosi jabrlanuvchilariga aylanib qolayotganligi ayniqsa diqqatga sazovor muammolardan biridir. Eng yomoni esa odam savdosidan jabrlanganlarning asosiy qismini ayollar va bolalar tashkil etishi bilan birga, bu jinoyatni sodir etayotgan shaxslarning ichida ayollarning ayniqsa koʻpligidir. Dunyo miqyosida turli manbalardan olingan maʼlumotlarning tahlili shuni koʻrsatadiki, odam savdosidan jabr koʻrganlar soni salkam 200 millonga yetgan.

BMT maʼlumotlariga koʻra esa, har yili dunyoda oʻrtacha 2,5-3 million kishi odam savdosining qurboniga aylanmoqda. Har yili qariyb 1 millionga yaqin ayollar va bolalar aldov yoʻli bilan chet ellarga olib ketilib sotib yuborilmoqda. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, odam savdosiga qoʻl urgan shaxslarning 40%ini ayollar tashkil etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi 2003-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1950-yilda qabul qilingan “Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash toʻgʻrisida”gi Konvensiyaga qoʻshildi. Shuningdek, mamlakatimiz parlamenti tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash toʻgʻrisida”gi Konvensiyaga hamda odam

savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalarni sotishning oldini olish, unga chek qo'yish va buning uchun jazolash to'g'risidagi qo'shimcha hujjatlar imzolandi.

Ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlar – bu bevosita turtki berib, ayollar tomonidan jinoyatning sodir etilishini keltirib chiqarmasa ham, ammo uning sodir etilishiga imkon bergan voqea, hodisa va jarayonlardir.

Kriminologiyada sabab va shart-sharoitlarni har doim ham to'liq va aniq bir-biridan ajratish imkoni bo'lavermaydi. Shunday sabablar borki, ko'rinishidan shart-sharoitga va shunday shart-sharoitlar borki, ko'rinishidan sababga o'xshab ketadi. Qolaversa, sabab va shart-sharoitlarning birlamchi va ikkilamchi turlarga bo'linishi ular o'rtasidagi tafovutni aniqlashda turli murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shu bois kriminologiyada "jinoyatchilik determinantlari" tushunchasi keng qo'llaniladi. Ushbu tushuncha o'z tarkibiga jinoyatchilikning ham sababini, ham shart-sharoitlarini qamrab oladi[16].

Xulosa qiladigan bo'lsak, ayollar jinoyatchiligining quyidagi asosiy sabablari aniqlangan: 1) moddiy qiynalanganlik, ishsizlik; 2) oilaviy aloqalarning mo'rtligi, ijtimoiy nazoratning pastligi; 3) axloqiy qadriyatlarining shakllanmaganligi, ma'naviy dunyoqarashning torligi; 4) o'z-o'zini nazorat qilishning yetishmasligi; 5) shaxslarga (ayollarga) nisbatan chiqarilayotgan sud hukmlari, qarorlari, ajrimlari tarbiyaviy ta'sirining pastligi.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Абдурасулова Қ.Р., Зокирова О.Г. Криминология. Ўқув-услубий қўлланма. –Т.:ТДЮИ, 2003.- Б.26-27. (Abdurasulova Q.R., Zokirova O.G. Criminology. Educational and Methodological Manual. - Т.: TDYU, 2003.- P.26-27.).
2. Абдурасулова Қ.Р. Аёллар жиноятчилигининг жиноят ҳуқуқий ва криминологик муаммолари. Юридик фанлар илмий даражасини олиш учун диссертация. Тошкент, 2006. – Б. 237. (Abdurasulova K.R. Criminal-Legal and Criminological Problems of Women's Crime. Dissertation for the degree of Doctor of Law. Tashkent, 2006. - P. 237.).
3. Холматова М.Х. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. –Т.: Ўзбекистон, 2000. –356. (Kholmatova M.H. Family Relations Culture and Raising a Healthy Generation. - Т.: Uzbekistan, 2000. -35p.).
4. Маткаримова Г.А. Халқаро ва миллий ҳуқуқда аёлларнинг гендер ва репродуктив ҳуқуқлари. Юрид.фан.док. илмий даражасини олиш учун дисс. –Т., 2002. – Б. 231. (Matkarimova G.A. Gender and Reproductive Rights of Women in International and National Law. Diss. for the degree of Doctor of Juridical Sciences. - Т., 2002. - P. 231.).
5. Сафаева С.Х. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлари. Фалсафа фан.ном.илм. даражасини олиш учун дисс. автореф. –Т., 2002. – Б.200. Ходжаева С.А. Правовая культура и проблемы развития социально-правовой активности женщин Республики Узбекистан «историко-правовое исследование». Автореф. дисс. на соиск.канд.юрид.наук. – Т.,2004. - С. 26. Ҳамраева Ш.Х. Аёллар траффиги (пуллаш)ни бартараф этишнинг халқаро ҳуқуқий муаммолари. Юрид.фан.ном.илмий даражасини олиш учун дисс.автореф. –Т., 2004. – Б.209. (Safayeva S.Kh. Women's Issues: General Social and National Aspects. Abstract of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy. - Т., 2002. - P.200. Khodzhaeva S.A. Legal culture and problems of development of social and legal activity of women of the Republic of Uzbekistan "historical and legal research." Abstract of dissertation for the degree of Candidate of Legal Sciences. - Т., 2004. - P. 26. Hamrayeva Sh.H. International legal problems of eliminating trafficking in women. Abstract of the dissertation for the degree of Doctor of Law. - Т., 2004. - P.209.).
6. Чернешкова Л.Ю. Уравнивающий и распределяющий аспекты справедливости в сфере уголовно-правовой охраны и ответственности женщин. Диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Саратов, 2012. – С. 98. Сергеева Е.Ю. Уголовная ответственность и наказание женщин по российскому законодательству: гендерный аспект. Дис. канд. юрид.наук. Саратов, 2006. – С. 211. Волкова Т.Н. Криминологические и правовые

- проблемы женской преступности в современной России. Дисс.доктор юридических наук. 2001. – Рязань. – С. 312. Андриенко В.А. Равенство граждан по признаку пола в уголовном праве и его соблюдение при реализации уголовной ответственности и наказания женщин. Диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Ростов-Дон. 2007. – С. 98. Хачак Б.Н. Гендерный подход в институте уголовного наказания: уголовно-правовые, пенитенциарные и криминологические проблемы. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Краснодар, 2013 – С. 89. (Cherneshkova L.Yu. Equalizing and Distributing Aspects of Justice in the Sphere of Criminal Law Protection and Women's Responsibility. Dissertation for the degree of Candidate of Legal Sciences. - Тошкент, 2012. - P. 98. Sergeeva E.Yu. Criminal Liability and Punishment of Women under Russian Legislation: Gender Aspect. Diss. cand. jurid.nauk. Saratov, 2006. - P. 211. Volkova T.N. Criminological and Legal Problems of Women's Crime in Modern Russia. Doctor of Juridical Sciences. 2001. - Ryazan. - P. 312. Andriyenko V.A. Equality of citizens by gender in criminal law and its observance in the implementation of criminal liability and punishment for women. Dissertation for the degree of Candidate of Legal Sciences. - Rostov-on-Don. 2007. - P. 98. Хачак Б.Н. Гендерный подход в институте уголовного наказания: уголовно-правовые, пенитенциарные и криминологические проблемы. Dissertation for the degree of Candidate of Legal Sciences. - Тошкент, 2013. - Б. 89.).
7. Гитинова М.М. Криминологическая характеристика совершаемых женщинами преступлений против жизни и здоровья. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2009. – С. 156. Демина К.А. Криминологическая характеристика и детерминанты современной женской преступности. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. -Томск, 2013. – С. 209. Багдасарова А.Э. Криминологическая характеристика женской преступности в сфере экономики. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва, 2009. – С.192. (Gitinova M.M. Criminological characteristics of crimes against life and health committed by women. Dissertation for the degree of Candidate of Legal Sciences. 2009. - P. 156. Demina K.A. Criminological Characteristics and Determinants of Modern Women's Crime. Dissertation for the degree of Candidate of Legal Sciences. - Тошкент, 2020. - P. 209. Bagdasarova A.E. Criminological Characteristics of Women's Crime in the Sphere of Economics. Dissertation for the degree of Candidate of Legal Sciences. - Тошкент, 2020. - P.192.).
8. T.Andrea. Emanzipation – Der Schlüssel zur Erklärung der Frauenkriminalität? Eine empirische Untersuchung über den Zusammenhang zwischen weiblicher Kriminalität und der Geschlechterrollenorientierung, Dissertation Freiburg, 1996. Heinz: Frauenkriminalität. BewHi 2002, S. 136ff; vgl. ders.: Kinder- und Jugendkriminalität, ZStW (114) 2002, S. 549ff sowie Traulsen: Werden die Täter immer jünger?, MschrKrim 1997, S. 430ff. Schnabel-Schüle. Frauen im Strafrecht, 2008, S. 196. Ansatz Schmölzer. Aktuelle Diskussionen zum Thema „Frauenkriminalität“, MschrKrim 2013, S. 226 f. Wunder. Weibliche Kriminalität, 2015, S. 46.
9. Кудрявцев В.Н. Социально-психологические аспекты антиобщественного поведения. //Ж. Вопросы философии. 1974. №1. С.109. (Kudryavtsev V.N. Socio-psychological aspects of antisocial behavior. //J. Questions of Philosophy. 1974. No. P.109.).
10. Каракетов Ё., Усмоналиев М. Жиноятчиликка қарши курашнинг криминологик чоралари. –Т.: Ўзбекистон, 1995. 117-118-бетлар. (Karaketov Y., Usmonaliyev M. Criminological Measures in Combating Crime. - Т.: Uzbekistan, 1995. Pp. 117-118.).
11. Абдурасулова Қ.Р. Аёллар жиноятчилигининг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик муаммолари. –Т.: ТДЮИ, 2005. 56-б. (Abdurasulova K.R. Criminal-Legal and Criminological Problems of Women's Crime. - Т.: TSUL, 2005. P. 56.).
12. Маткаримова Г. Халқаро ва миллий ҳуқуқда аёлларнинг гендер ва репродуктив ҳуқуқлари. Юридик фанлари доктори илмий даражасини олиш учун диссертация. –Т., 2002. – Б. 76. (Matkarimova G. Gender and Reproductive Rights of Women in International and National Law. Dissertation for the degree of Doctor of Science in Law. - Т., 2002. - P. 76.).
13. Алексеев А.К.: Криминология. Курс лекций. – М., 1999. – С. 67. (Alekseev A.K.: Criminology. Course lecture. - М., 1999. - P. 67.).

14. Каиржанов Е.И. Криминология (общая часть). – Алматы, 1995. – С. 72. (Kairzhanov E.I. Criminology (General Part). - Тошкент, 2015. - P. 72.).
15. Абдурасулова Қ.Р. Аёллар жиноятчилигининг жиноят ҳуқуқий ва криминологик муаммолари. Юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш учун диссертация. – Т., 2006. – Б.74. (Abdurasulova Q.R. Criminal-Legal and Criminological Problems of Women's Crime. Dissertation for the degree of Doctor of Science in Law. - T., 2006. - P.74.
16. Абдурасулова Қ.Р, Миразов Д.М, Мухторов Ж.С ва б. Аёллар жиноятчилигининг сабаб ва шароитлари ҳамда профилактикаси. Ўқув қўлланма– Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. – Б.56. (Abdurasulova K.R., Mirazov D.M., Mukhtorov J.S., et al. Causes, conditions, and prevention of women's crime. Textbook - T.: Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2016. - P.56.).

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

10 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 10, НОМЕР 3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 10, ISSUE 3

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000